Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321176

ta´minlashning ustivor yo´nalishlari´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

- разработка направлений коммерциализации инноваций в соответствии с текущими потребностями рынка, корректировка разрабатываемой продукции в соответствии с требованиями потенциальных потребителей с уменьшением будущих затрат на переработку продукции;
- обеспечение планового процесса успешной коммерциализации проекта с его продвижением на рынок в соответствии с долгосрочной стратегией организации.

Список использованной литературы

1. Антонов В.В. Коммерциализация интеллектуальной собственности: современный аспект. // Конкурентоспособность в глобальном мире: экономика, наука, технологии. - 2016. - № 9-1 (23). - С. 7-10

2. Дадаев Я.Э. Бизнес-образование и его влияние на уровень предпринимательства. // Я.Э.Дадаев. // ФГУ Science. Научно-аналитический журнал. - 2021. - № 4. - С. 17-27.

3. Jumaev N.X., Rahmonov D.A. Oliy ta’lim olishni xususiy manbalardan moliyalashtirish: nazariya va amaliyot [Private funding for higher education: theory and practice]. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar - Economy and innovative technologies, 2018, September-October, no. 5.

4. Зяблов А.А., Толкачева С.В., Малевич И.Х. Коммерциализация инноваций как фактор повышения эффективности работы вуза. // https://rep.bntu.by/bitstream/handle/data/27451/87-91.pdf?sequence=1&isAllowed=y.

v

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMINSONIY VA ILMIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Xakkulova Sevara Abdurasulovna
Toshkent kimyo texnologiya instituti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash va ularning ma’naviy yuksalishida umuminsoniy va ilmiy qadriyatlardan foydalanish mumkinligini o‘rganishga qaratiladi. Shuningdek,ma’naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish orqali talabalarni bilim olishga, kasbiy faoliyatga qiziqtirish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda aniq natijalarga erishish yo‘llari tadqiq qilinadi.

Kalitso‘zlar: Bo‘lajakboshlang‘ichsinfo‘qituvchi,qadriyat, umuminsoniyqadriyat, dunyoqarash, ilmiydunyoqarash, ijodiyfikrlash, adolatli, odobli, intellektual, ijodkor.

Kirish.O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanish va taraqqiyot yo‘liga tushgan bugungi kunning istiqboli kelajagini belgilash va ta’minlash, ko‘p jihatdan hozirgi yosh avlodni ma’naviy yetuk va intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashga bog‘liq. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan savodxonlik asoslariga va hisoblash tafakkurini rivojlantirishga oid barcha fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishlikni talab etadi. Bu o‘z navbatida zamonaviy ta’lim tizimi oldiga ma’naviyati yuksak, intellektual salohiyati yuqori, ilmiy dunyoqarashi keng raqobatbardosh bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash lozimligini ko‘rsatadi.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Xakkulova Sevara Abdurasulovna (2024). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarning ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321176

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Asosiy qisim. Etik va axloqiy qadriyatlar: Umuminsoniy qadriyatlar, masalaning, inson huquqlari , adolat, hurmat va mas'uliyat, o‘qituvchilarga o‘z bilimlarini, balki o‘quvchilarning shaxsiy taraqqiyotini ham ta'minlaydi.

Ilmiy bilimlar va yangiliklar: Ilmiy tadqiqotlar, masalan, haqiqatga sodiqlik, izlanish, tanqidiy fikrlash va tadqiqotga tayangan o‘qitish metodlari, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini chuqurlashtirish.

Kasbiy malaka va bilimlar: O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ilmiy dunyoqarashni kuzatishda muhimdir. Bu jarayonda pedagogika, psixologiya va fanlari bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion uslublar ham muhim rol o‘ynaydi.Umuminsoniy va ilmiy tadqiqotlarni singdirish orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari talabalarning bilimrashini, balki dunyoqarashga ham yordam beradi. Bu esa kelajak avlodning har tomonlama rivojlanishi, intellektual va ma'naviy yetuk intellektual bo‘lib yetishishiga zamin[159].

Tadqiqot metodi va metodologiyasi:Uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va intellektual salohiyatini yuksaltirish asosidagi kasbiy yetuk mutaxassislar tayyorlash muammolari T.Jo‘rayev, R.Jo‘rayev, V.Karimova, I.A.Klimov, S.V.Kulnevich, M.H.Mahmudov, Z.I.Mirzayunusova, SH. Olimov, B.X.Raximovb, R.Safarova, N.O.Sulaymonov, K.G.Yuldoshev, D.N. Yuldasheva, E.O. Quvondiqov, va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Bularning hammasi bo‘lajak o‘qituvchilarning chuqur bilimlarga ega bo‘lishini, ilmiy dunyoqarashini kengligini, o‘z sohasini va ayniqsa yosh avlodni seva olishlikni talab etadi. Bu borada salmoqli ijodiy ishlar bilan shug‘ullanayotgan olim-mutaxassislarimiz va ijodkor o‘qituvchilarimiz soni ko‘paymoqda.

Ularning ishlarida milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan; diniy ilmlardan ham xabardor, ma’naviy barkamol; shuningdek, vatanparvarlik burchini to‘g‘ri anglagan; ixtisosiga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni hamda nazariy va amaliy bilimlarni mukammal egallagan; o‘qituvchilik kasbini va bolalarni sevadigan, erkin va ijodiy fikrlay oladigan; talabchan, adolatli, odobli va shu kabi xislatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari qarab chiqilgan. Bunda ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni xalqimizning an’analarini, madaniyati va ilm-fan bobidagi ko‘p asrlik tajribalarini o‘rgatish ijobiy pedagogik samaralarni beradi. Shuning bilan birga jamiyatimizda yashovchi har bir ongli kishi, mustaqil va erkin fikrga ega bo‘lgan shaxs va fuqarolik jamiyati ma’naviyatini shakllantirish va shu asosda rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining asosini tashkil etadi[160].

Shu sababli ham o‘qituvchining serqirrali va murakkab kasbiy faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, e’tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish yordamida ilmiy dunyoqarashini kengaytirish kabi muhim vazifalar yotadi. Ma’lumki, jamiyat ma’naviy hayotini rivojlantirish o‘sha jamiyatda faoliyat ko‘rsatuvchi kishilarning intellektual salohiyati: ma’naviyati va ma’rifati, madaniyati va san’ati, ilm-fani va ta’lim-tarbiyasi to‘g‘risidagi bilimlarning nechog‘lik ilmiy asoslanganligi, to‘g‘ri nazariy va amaliy negizlar asosida shakllanganligiga bog‘liq. Shu sababli ham bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini jahon ta’limi talablargi mos qilib shakllantirish o‘ta muhim muammodir.

Bu muammo yechimini topishda biz avvalo shaxs, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilar oldiga qo‘yilgan quyidagi vazifalarga e’tiborni qaratdik: – har bir bolada mavjud bo‘lgan layoqat, ishtiyoq va qobiliyatlarni erkin va samarali rivojlantirishga erisha olishlik; –

[159]Pedagogika. A. Munavvarov tahriri ostida, -Toshkent: O’qituvchi,2006. -296bet
[160]Pedagogika. A. Munavvarov tahriri ostida, -Toshkent: O’qituvchi,2006. -296bet

ijobiy sifatlarni milliy va fuqarolik his-tuyg‘usini hamda milliy g‘ururni o‘stirishga erishish; – ilmiy dunyoqarash va e’tiqod; ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruratlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash; ijtimoiy siyosiy faollikni tarbiyalashga tayyor holda bo‘lishga erishish va shu kabilar. Demak, bo‘lajak o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishga zamin yaratishi, ya’ni ularni o‘qishga, ta’lim olishga qiziqtirish va ishtiyoq uyg‘otish bilan birga ularning idrok etish, fikrlash qobiliyatlarini, dunyoqarashini kengaytirish kabi sifatlarini o‘stirishga o‘z kasbiy faoliyatini to‘liq safarbar etmog‘i lozim. Bunda ular o‘z o‘quvchilarining ruhiy holati va imkoniyatlari, layoqati, yetukligi, ma’naviy ehtiyoji, yashash muhiti kabi omillarni e’tiborga ola bilish qobiliyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z kasbiy sohalarida quyidagi xislatlarga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi: o‘z o‘quvchilarini sevish va ular bilan ishlashga qiziqish; pedagogik faoliyatni sevish va bu faoliyatni o‘zining hayotiy ehtiyojiga aylantirish; ruhiy va pedagogik jihatdan ham ziyrak, kuzatuvchan, sinchkov bo‘lish; pedagogik taktik va tasavvurga hamda tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish; adolatlilik, dilkashlik, talabchanlik va qat’iyatlilikni uyg‘un holda olib bora olishlik; maqsadga intilishda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olishlik; vazminlik, dilkashlik, o‘zini idora qilishlik, shuningdek, kasbiy faoliyatga layoqatining yuksakligi va shu kabilar. Shuning bilan birga bo‘lajak o‘qituvchilar yoshlardagi burchga mas’uliyatni tarbiyalash sir-asrorlarini mukammal egallamog‘i lozim.

Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimizning natijalarining ko‘rsatishicha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ma’naviy qiyofasi shakllanishida asosan quyidagilarga e’tibor berish kerak ekan: oila, mahalla va maktabni muqaddas, deb bilish; bola xatti-harakatini tahlil qila bilish va rejalashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayoniga bola faoliyatini optimal boshqara olish; bola ongi va tasavvuriga mos qilib, halol va harom, to‘g‘rilik va egrilik, yaxshi va yomon, mardlik va nomardlik, ma’naviyatlilik va vaxshiylik kabi tushunchalarni mazmun-mohiyatini singdira olish qobiliyatiga ega bo‘lish; bolaning erkin, mustaqil va to‘g‘ri, keng ko‘lamli fikrlashini shakllantirishning shakl, usul va vositalarining optimal variantlarini tanlay olish; o‘tmish boy milliy-ma’naviy merosimizga hurmat uyg‘ota bilish uslubiyatini yarata bilish; milliy g‘ururni uyg‘otish, davlat ramzlariga hurmat va unga mos g‘ururni shakllantirish, fidoiylikni shakllantirishning sir-asrorlarini o‘rgata bilish; o‘z o‘quvchilarini go‘zal, ziyrak, aqlli, ongli, milliy g‘ururli, sezgir, sinchkov, farosatli, madaniyatli, ma’naviyatli va shu kabi xislatlarni shakllantirishga innovatsion yondashuvlar qila olishga erishish; o‘z o‘quvchilarini vatanparvar, baynalminalchi, fuqarolik burchini chuqur his qiluvchi va shuningdek, milliy istiqlol g‘oyalariga sodiq ma’naviyatli kishilar darajasida tarbiyalashga yangicha munosabatlarni shakllantirish va shu kabilar. Umuminsoniy qadriyatlar: «Odamzodning yashashi, umrguzaronligi, farzandlari hayotining ijtimoiy, iqtsodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy va axloqiy sohalariga taalluqli bo‘lgan umumjamiyat miqyosidagi qadriyatlar butn insoniyat va jamiyatga tegishli bo‘lganidan, umuminsoniy qadriyatlar, deb ataladi»[161]. Umuminsoniy qadriyatlar o‘zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilinishi, dunyodagi ko‘plab xalqlartaraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o‘zida jahon sivilizatsiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning va millatlarnigina emas, balki insoniyatning mulkidir. Demak, umuminsoniy qadriyatlar eng oliy qadriyat bo‘lmish odamning o‘zidan boshlab, uning turmush tarzi, hayot mazmuni, oilasi, jamoasidagi o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo‘lgan jihatlar ekan. Shuning

[161] 1. Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2004. – 476 b.

bilan birga umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga va hattoki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir qiladi. «Sivilizatsiya–axborotni to‘plash, tahlil qilish va undan foydalanish hamda atrof-muhit va o‘zi haqida axborot yaratish uchun eng ko‘p ma’lumot olishga qodir bo‘lgan moddaning yuqori turg‘un holatidir»[162]. Shu sababli ham hozirgi davrda har bir inson, har bir fuqaro o‘zligini chuqur anglashi, boy milliy intellektual mulkni egallashi, boyishini umuminsoniy qadriyat bilan uyg‘unlashuvi negizida amalga oshirishi ta’lim va tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Intellekt – bilish, tushunish, idrok etish demakdir. U insonning aqliy qobiliyati bo‘lib, u inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka bo‘lgan munosabatlarini boshqarib turadigan faoliyati, hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish vao‘zgartirish, fikrlar, o‘qish-o‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribasini qabul qilish qobiliyati; turli muammolarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan bilish.

Intellektual mulk – ijodiy aqliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik manbai huquqi majmuiga fan, adabiyot, san’at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san’ati, jumladan ovoz yozish, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma’lumotlar ombori, tovar belgilari, firma atamalari va boshqa aqliy mulk manbalari kiradi[163].

Tajribalarning ko‘rsatishicha, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlar qilishning yana bir ko‘rinishi har qanday fan bo‘yicha ta’lim berishda ma’naviy tarbiya vositalaridan foydalanish, ayniqsa ma’naviy-ilmiy qadriyatlardan foydalanish o‘zining ijobiy pedagogik samaralarini beradi. Bu borada ham ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan boy intellektual mulk va umuminsoniy qadriyatlarimizni bo‘lajak mutaxassislarimiz ongiga va qalbiga muntazam singdirib borishning tarbiyaviy ahamiyati katta. Quyida biz ular to‘g‘risida qisqacha to‘xtalamiz.

Ilmiy qadriyatlarning ideallar shaklida ifodalanishi orzu-umidlar ro‘yobga chiqishi bilan bog‘liq bo‘lib, u kishilar va jamiyat intiluvchi oliy maqsaddan iborat bo‘ladi. Demak, donishmandlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan intellektual meros ko‘proq ilmiy qadriyatlarga tegishli bo‘ladi. Ilmiy qadriyatlar insonlar va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan intellektual mulkdan iborat bo‘ladi. Ammo insoniyatni birlashtiradigan soha bu umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlardir. Ma’lumki, bunday qadriyatlar o‘z davrining ilmiy qadriyatlar asosida yuzaga keladi. Quyidagilar ya’ni g‘ildirak, olov, yozuvlarni va kitob bosish texnologiyasining hosil qilinishi; turli alifbolarning yaratilishi yaratilishi; metallarga ishlov berish texnologiyasining yaratilishi; bug‘ va ichki yonuv dvigatellarining yaratilishi; elekt va energiyaning bir turdan ikkinchi turga aylantirish texnologiyasining paydo bo‘lishi; telefon va telegraf tarmoqlaridan foydalanishga kirishishi; elektronika va kompyuterlarning amaliy faoliyatda keng foydalanishi; sun’iy intellekt kabi yo‘nalishlar donishmandlarimizning ilmiy meroslari natijalaridir Demak, ilmiy qadriyatlarning kishilarga, oilaga, jamoaga, jamiyatga, qolaversa davlatga foydasi tegar ekan, faqatgina ulardan oqilona va odilona maqsadga muvofiq ravishda foydalanish lozim, aks holda reaksion qadriyatlarning ham paydo bo‘lish ehtimoli bor. Biz talabalarimiz ongiga progressiv qadriyatlarimizni singdirmog‘imiz lozim, chunki bizning vazifamiz yoshlarimizni bunyodkor g‘oyalar bilan, ya’ni milliy istiqlol g‘oyalari bilan qurollantirishimiz kerak. Ana shundagina jamiyatimiz va davlatimizning faol ishtirokchisi bo‘lishi, barkamol shaxsni tarbiyalashga erishamiz, aks holda yoshlarimiz vayronakor

[162]Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.
[163]Muhammedov I., To‘raqulov X.A. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2004. – 200 b.

g‘oyalar, ya’ni har xil eksterimistik oqimlar g‘oyalari ta’siriga tushib qolishi mumkin. Yuqorida qayd etilgan umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarni ongli ravishda bilish uchun bo‘lajak mutaxassisdan sinchkovlik, sezuvchanlik, idrok qilishlik va shu kabi xislatlarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Demak, umuminsoniy va ilmiy qadriyatlar bo‘lajak mutaxassislar ma’naviyatining shakllanishida, ularning kasbiy rivojlanishida mustahkam asos bo‘lib, uning yordamida talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning samarali yo‘llaridan biri kafolatlanadi. Bu esa «XXI asr – aql-zakovat asri – axborotlashgan jamiyat sari asri»dagi uzluksiz ta’lim tizimining faol ishtirokchisini tayyorlashga mustahkam asos bo‘ladi. Yuqorida ifoda etilgan, ya’ni o‘tmishdan bizgacha yetib kelgan intellektual mulkdan har qanday o‘qituvchi ham o‘z kasbiy faoliyatida samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lavermaydi, chunki ushbu sohani qamrab oluvchi ma’lumotlar hajmi juda katta.

Xulosa qilib olgandaumuminsoniy va ilmiy qadriyatlardan avvalo, fan va ta’lim taraqqiyotida[164], kishilar turmush sharoitini yaxshilashda, oila kamoliga erishishda, jamoa manfaatlarini yuksaklikka ko‘tarishda, jamiyat taraqqiyoti saviyasini tezlashtirishda va davlatning iqtisodiy hamda ma’naviy-ma’rifiy qudratini yuksaltirishda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, bundan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o‘zida mujassam qilgan Ozod va obod Vatan qurishdan iborat; Shaxs intellektual salohiyati va unga mos intellektual mulkdan har qanday o‘qituvchi ham hamma vaqt o‘z kasbiy faoliyatida samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lavermaydi, chunki ushbu sohani qamrab oluvchi ma’lumotlar hajmi juda ham katta va bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga oid ma’lumotlarni to‘plash, ularni tadqiqot maqsadiga mos tizimlarga ajratish hamda foydalanishga qulay holdagi axborotlar ko‘rinishiga keltirish mazkur muammo yechimini topishni texnologiyalashtirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2004. – 476 b.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.
3. Muhammedov I., To‘raqulov X.A. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2004. – 200 b.
4. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. - Toshkent: Turon Iqbol, 2006. -592 b
5. Pedagogika. A. Munavvarov tahriri ostida, -Toshkent: O‘qituvchi,2006. -296bet

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚУЛЛАШ

Авазхонов Шоҳназар Гулназарзода
ЯНГИ АСР УНИВЕРСИТЕТИ “Таълим тарбия назарияси (Бошланғич таълим)” йўналиши 1-курс магстранти

Аннотатсия. Ушбу мақолада шиддат билан ривожланиб бораётган замон учун ёш авлодни муносиб равишда тайёрлаб бориш, тарбиялаш, замонавийлик тушунчаси билан, таълимда инновациялардан педагогик технологияларни дарс

[164] Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. - Toshkent: Turon Iqbol, 2006. -592 b